

## **6-mavzu. Qog'ozdan buklash yo'li bilan o'yinchoq yasash (“Origami usuli”).**

### **Reja:**

1. «Origami» usuli haqida.
2. Origami turlari va shakllari.
3. Origami tayyorlash texnikasi.
4. Bolani rivojlanishida origamidan foydalanish

***Tayanch atamalar:** origami, qog'oz, buklash, shakl, ijod, qog'oz parchasi, geometrik shakllar, yapon turnasi.*

### **1. «Origami» usuli haqida.**

Origami – so'zining kelib chiqishi yapon tiliga mansub bo'lib, ikki ibora “ori” – buklangan va “gami” – qog'oz degan ma'nolarni anglatadi.

Qadimda Xitoyda qog'ozdan turlicha foydalanilgan, shu jumladan diniy marosimlarda ham. Masalan, dastlab, dafn marosimida vafot etganni, foni dunyoda baxtli xayot ta'minlash uchun, uydagi barcha buyumlari bilan birga yoqib yuborishar edi. Ammo, keyinchalik, tejamkorlik qilish maqsadida, haqiqiy narsalar nomlari yozilgan maxsus qog'oz parchalari bilan almashtirildi (hozirgi kunda xam Xitoyda farovonlik va baxt tilaklari yozilgan qog'oz parchalarini kichik do'konlardan sotib olish mumkin)

Mashxur osma fonuslar kabi, qog'ozdan uy-ro'zg'orga foydali bo'lgan xar xil buyumlar yasalgan. Ularni tayyorlashda “buklash” usulidan foydalanilgan. Biroq, kvadrat qog'ozlardan buklangan shakllar Xitoy va Yaponiyada bir xil nomga ega bo'lmadi. Ehtimol buning sababi, yapon qog'ozi nafaqat yozishga, shirma, soyabonlar, deraza pardalari, hatto kiyimlarni ishlab chiqarishda ishlatilgan, balki dzei-buddizm falsafasining ba'zi mafkuraviy g'oyalarini namoyish qilishda foydalanganlar.

Buddistlar birinchi bo'lib mayda narsaga e'tibor qaratishdi va dunyodagi yuqori va past darajaga bo'linishni yo'q qilishdi (g'arbning umumiy qonunlarida yuqoriga va pastga, mashg'ulotlarning muhim va muhim bo'lmagan yaxlit san'at

bo'linishi deb xisoblaganlar). Dunyoda barcha narsa o'zaro bog'liqdir, negaki beqaror bo'lgan eng mayda zarrada abadiylik nafasini tutish maqsadida, ular diqqatini barcha narsaga qaratganlar.

Bir necha yillar avval o'rta xol evropalik qog'oz xaqida hech narsa eshitmagan, xitoylik va yaponiyalik esa qog'oz qurshovida bo'lgan. XV asrning 50 yillarida *Mayntse* shaxarchasida mashxur nemis ixtirochi **Iogann Guttenberg** birinchi marta qo'lda tayyorlangan g'arbiy-yevropa qog'ozida injilni chop etgan edi. Ushbu qog'oz bosma uchun tayyorlangan birinchi qog'oz edi.

“*Vashi*” qog'ozining yuqori pishshiqligi pirotexnikada foydalanishda yuqori baholangan. Yapon qog'ozi ekipajlarda nam o'tkazmaydigan parda sifatida, ingichka trostlar va arqonlar, meditsinada(plastir) qo'llanilgan. Qog'ozdan ingichka eshilgan arqondan turli xil futlyarlar, savatchalar, ko'zoynaklar va musiqali asboblardan uchun qutilar to'qiganlar.

Birinchi yapon qog'ozi juda yuqori sifatli bo'lgan. Qish faslida ishlab chiqarilgan qog'oz chiroyliroq va ushlaganda yoqimli bo'lgan. Sovuq tufayli qog'ozning sifati a'lo darajada bo'lib tolalarni buzilishidan himoya qilar edi.

Umuman olganda buyumlarda yashiringan go'zallikni yaponiyaliklar IX –




XII asrda kashf etishgan, Xeyax davrida (794 – 1185) maxsus tushuncha “*mono - noavare*” bilan belgilangan. Bu kashfiyot “*sinto*”dan kelib chiqqan, bunda xar bir narsa, xar bir xodisa, xattoki so'zning o'zida kami - ilohni o'zida mujassam etdi. *Sintoizm*, umuman olganda, ko'p xudolilikka juda o'xshaydi. Sintoistlar uchun kami o'zgacha bo'lgan narsalarda joylashadi va yashaydi. Masalan,


qog'ozda. Sintoist ibodatxonasiga kirishda zigzag qilib ajib tarzda buralgan goxey osilgan bo'lsa ibodatxonada ilohning mavjudligini bildirib turardi. 20 xil goxey buklash variantlari mavjud bo'lib eng ajobtovur qilib buklanganlari kami-ni jalb qiladi. IX asrdan boshlab Yaponida sumo kurashidan oldin kurashchilarining belbog'iga goxey osib qo'yish odatga kirgan.

 <p>1.試験にパスするまじない (Shiken ni pasu- suru madzinay) – «Imtixon topshirish uchun»:</p>	 <p>2.呪いを解消する (Noroy o kasyou-suru) – «Lan`atni olib tashlash uchun»:</p>
 <p>3.勝敵符(Syoutekifu) – «Dushmanni yengish uchun», musobaqada kuliroq bo`lish uchun:</p>	 <p>4.家屋除災符(Kaokudzyosayfu) – «Uyni balo-qazolardan ximoya qilish uchun»:</p>

Xozirgacha Yaponiyada– oq qog`ozdan qilingan kata-siro sakkizta qog`irchoq yasaladi, ularni makondagi sakkiz yo`nalishdagi baxtsizliklaridan asrashi uchun ko`yib chiqishadi; gof – qog`oz tumorlari; va nagasi-bina – oilaviy uyg`unlik timsoli: eru-xotin qog`oz kimonoda dumaloq yotoqda.



Xozirgi davrgacha ham sintoistlar ibodatxonani yovuz ruhlardan tozalash uchun oq qog`oz parchalaridan yasalgan xaram – turnalar – popuklilardan foydalaniladilar. Umuman olganda sintoda qog`ozning roli juda katta va undan qilingan buyumlarga ezoterik ma`no berilgan.



Kamakura (1185–1333 yy.) va Muromati (1333–1573 yy.) davrlarida origami ibodatxona chegaralaridan chiqib imperator saroyigacha kirib boradi. Zodagonlar va saroy ahli buklash san`ati bo`yicha ma`lum bir ko`nikmalarga ega

bo`lishlari kerak edi. Kapalak, turna, gul yoki abstrakt geometrik shaklda buklab tayyorlangan, xatlar do`stlik yoki sevimli insoni uchun xayirli tilaklar ramzi sifatida bo`lgan. Shu tarzda ko`proq e`tibor, xissiyotlarni ifoda eta olish mumkin edi, oddiy so`zdan o`laroq buklash bilimi yaxshi ta`lim va nozik did belgisi bo`lib qolgan edi. Turli zodagon oilalar origami shakllarini ramz va muxr sifatida ishlatishgan. XI asrda yashagan Saroy xonimi Murasaki Sikibu "Gandzi mono gatari" ("Shukuxli shaxzoda Gandzi xaqida xikoya") kitobida origami turlari xaqida–xatlarni buklash san`ati, xatning ajabtovur bezakli konvertga aylanishi to`g`risida gapirib o`tgan.

Adzuti-Momoyana (1573–1603gg.) va Edo (1603–1867gg.) davrida origami rasmiy san`at turidan ommabop vaqtichoqlikka aylandi. Shunda qog`oz xashamat predmeti bo`lmay qoldi va oddiy xalq orasida keng tarqala boshladi. Aynan o`shanda, uchyuz - to`rtyuz yil avval, bir qator yangi shakllar o`ylab topiladi, keyinchalik esa ular klassik shakllarga aylanadi. Ular orasida yapon turnasi (tsuru) – yapon an`anaviy baxt va uzoq umr ramzi.



Origami san`ati Yaponiyada avloddan avlodga o`tadigan, asosan ayollar, an`anaga aylandi. Tarixchilar ta`kidlashicha, shakllarning buklanishi va shakllar to`plami orqali qizlarning Yaponiyaning qaysi qishlog`ida o`sgan va ta`lim olganligini aniqlash mumkinligini ta`kidlab o`tganlar.

Shunday qilib origaming paydo bo`lishiga sintoizm sabachi bo`lgan, buddistlarning e`tiborini qog`ozning sirli o`rniga qaratgan. Shu jumladan "kami" - "qog`oz" va "iloh" so`zlarining ma`nodoshligi ham katta ahamiyatga ega bo`lgan. Yaponlarning tushunchalarida diniy marosimlar va buklangan qog`oz buyumlar o`rtasida qandaydir mistik aloqa paydo bo`ldi. Birinchi origamilar sintoistik ibodatxonalarda paydo bo`lishi tasodif emas. Ular ishtirokidagi morosimlarning

birida sanbo qog`oz qutisini baliq va sabzavotlar bilan to`ldirib xudolarga qurbonlik sifatida taqdim etishgan.

## 2. Origami turlari va shakllari.

Yaponiyada birnecha tipdagi origamilar ma`lum. Ular turli davrlarda paydo bo`lgan, o`xshash shakllarning turli texnologiyalar bilan tayyorlash, rangli qog`ozning paydo bo`lishi hamda u yoki bu predmetning tayyorlash maqsadlari bilan o`zgarib borgan.

Ashie-i origami - maxsus buklashlar va qirqishlar yordamida qilingan qog`oz qo`g`irchoqni ifodalaydi. Qo`g`irchoqning yuzi qog`ozda chiziladi, kiyimi esa chizilishi yoki yelimlanishi mumkin.



*Nishiki-i origami* – bu turda rangli qog`ozdan foydalanilgan, rasm yog`och kundalar yordamida bosilgan. Ushbu origami turi Tayoyo davrining oxiridan to Shyova (1926g.) davrining boshigacha ishlatilgan. Bu uslubda tayyorlangan qo`g`irchoqlarga ixchamgina kesilgan va mo`yqalam bilan yuzlari va kiyimlari chizilgan.




*Kasaneori origami*- bir necha rangli qog`ozlarni aralashmasini buklash yo`li bilan maxsus buklashdan qolgan chiziqlarni ifodalaydi. Oxirgi qog`oz faqatgina ma`lum bir rangda bo`ladi. Buni ushbu origami turidan foydanilayotgan marosim yoki xodisa belgilab beradi.

*Kavari-i origami* – bu origami turida xar bir parcha qog`ozda alohida rasmlar bosilgan qog`ozlardan foydalaniladi. Aloxida elementlarni buklashda ayrim shakllarni gohida ochib, gohida esa berkitib qismlardagi turli xil ajabtovur rasmlarni xosil qiladi. Bu turdan xar xil bolalar konkursleri va bellashuvlarida foydalaniladi.

*Kiritsunagi origami* bir necha o`zaro birlashgan shakllarning tayyorlanishi. “Tsurifune” – turnalar galasi namuna bo`la oladi. Ular to`rtburchak qog`ozdan, mayda to`rtburchakchalarga bo`lingan, o`rtadagi katta to`rtburchak qog`oz bilan birlashtirib yasaladi. Qog`oz qirqishning 49 turli usuli mavjud, qismlarni tayyorlash etarlicha murakkab bo`ladi. “Sembazuru” turnalar bilan tumor sifatida uyni bezatishni nazarda tutadi, orzuning ushalihi uchun. Odatda bu turdagi origami uchun yapon qog`ozi "vashi" ishlatiladi u 30 qavatgacha buklanishi mumkin.

Bu origami turlari boshqa davlatlarda keng tarqalmadi, chunki ular faqatgina Yaponiyaga xos turli marosimlar, udumlar va bayramlar bilan bog`liq. Biroq, to`rtburchak qog`ozdan foydalanish va origami shaklining an`analariga asoslangan buklash san`ati mamlakatlarda ta`lim va san`atda foydalanishda o`z o`rnini topdi.

Yuqorida keltirilganidek buklash san`ati uzoq o`tmishdan kelib chiqqan bo`lib bular soni uncha katta bo`lmagan. O`shalarda ishlash uslublari, nafaqat yozish va chizish balki turli qog`oz shakllarini yasash uslublari pishitilgan. Aynan shu davrda odamlar origami uchun maxsus qog`oz navlari kerakligini tushundilar. U egiluvchan, buklangan chiziqlarini yaxshi saqlab qoluvchi, sinmasligi va tukli bo`lmasligi kerak edi. O`sha davrda origami san`atini ko`pchilik bilmas, qog`oz juda qimmat u yoki bu buyumni yasash sxemasi ishlab chiqilmagan edi. Qog`oz bilan ishlash texnikasi va usullari bevosita odamdan avloddan avlodga o`tib kelgan. U yoki bu marosim yoki udumlar uchun an`anaviy ishlangan buyumlar to`planib qolar edi. Bora-bora an`anaviy origami shakli yuzaga keldi, ularga "Turna", "Baqa" va x.k. shakllari asos bo`ldi.



Keyinchalik ustalar paydo bo`la boshladilar, ularni an`anaviy origami shakllari chegaralari qoniqtirmay qo`ydi. Ular o`zlarining buyumlarini yasashda yangi bazaviy shakllar qidirishar edi. Nafaqat to`rtburchak balki to`g`ri to`rtburchak, romb, beshburchak va oltiburchak, doira, uchburchakdan foydalanishar edi. Bular origami imkoniyatlarini kengaytirdi va to`rtburchakdan yasab bo`lmaydigan shakllarni yasay boshladilar. Kosho Ushiyavo aytadiki: "Origami – bu shunday dunyoki, unda xar bir odam birgina qog`ozdan buyum yasab yaratuvchi quvonchini xis qiladi". Buyumlar yanada shaxsiy, yanada ijodiy va turli tuman bo`ldi. Bu ayniqsa maskalarni tayyorlashda ko`rindi. Ijrochining xarakteri, uning emotsional xolati yasagan buyumda aks etadi: ogiz, ko`z va burun o`lchamlari xes qachon bir xil bo`lmaydi, xar bitta maska o`z "yuz ifodasi"ga ega.


Origami yasovchi ustalar printsip jixatidan qaychidan voz kechishgach origaming ijodiy shakli faol rivojlana boshladi. Bunda shaklning ayrim qisimlarini yasashda va keyinchalik ularni o`zaro bog`lashda kirkishni o`rniga bir necha varoq qog`ozlardan foydalanila boshladilar. Bunga yorqin misol sifatida tuyaning oyoqda bermalol tik turishiga sabab, balki boshining qiyasini o`zgartirishdir. Ayrim shakllar, masalan, toshbaqa, varoqni o`rtasidan teng bo`lib va keyin oldingi va orqa qismlarini alohida buklanadi. Maskasida odam yoki ilox shaklini yasash uchun qo`shimcha bir-ikki varoq qag`oz kerak bo`ladi. Ulardan gavdaning yuqori va pastki qismlari yasaladi.

Ko`pincha murakkab narsalarni yasashda origaming ijodiy shakli sifatida an`anaviy asos va elementlardan foydalaniladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan origaming yangi turi paydo bo'ldi –ya'ni modulli. Yaponiya, Evropa va AQSHning yetakchi origami ustalarini ma'lum bir miqdordagi qirrali segmentlardan iborat an'anaviy bazaviy shakllari qoniqtirmas edi. Asta sekin ushbu bazalardan kelib chiqib ularning to bora ko'payishiga qarab, taklash bir xillashib borgan. Ushbu fakt origamichilarning shu kungacha yaratilgan bazaviy shakllardan butunlay farqli o'laroq yangi shakllarini yaratishga turtki bo'ldi. Asosan bu bazaviy shakllar jahonning etakchi institut va universitetlarning matematik, arxitektura, badiiy-grafik fakultetlarida yaratilgan. Yangi shakllarning yaratishda oliy matematika, chizma geometriya, kompyuter grafikasi bo'yicha bilimlar kerak bo'ldi.

Modulli origami modulni yaratish jarayonida xosil bo'ladigan buklash va cho'ntaklar uchun qaychi va yelimni ishlatishni inkor qilishgan. Bu origami turida boshqotirmaga xos jozibasi bor, garchi geometriya va stereometriyadan yaxshi bilimni talab qilsa ham.

### **Oddiy origami**




### **Modulli origami**




## Pattern



## Xo'l buklash



## Kusudama



## Puldan yasaladigan origami



## Temirdan yasalgan origami modellari



### **3. Origami tayyorlash texnikasi**

Origami buyumlarini yasashda turli texnika ustida ishlash, asosiy e`tiborni buklab to`g`ri bajarishga qaratish kerak. Ular "o`tkir" bo`lishi shart va qog`oz qavatlari bir biriga zich kelishi kerak. Aks xolda buklangan joylarni bir biriga keltirishda siljishlar bo`lishi mumkin, bu esa o`z navbatida yasalayotgan buyumni chiroyli chiqishiga to`squinlik qiladi. SHuning uchun xar bir etapdan keyin barcha buklanishlarning "o`tkirligi"ni tekshirish kerak.

Bosh, tumshuq, panja, dum qismlari ustida ishlayotganda jayvon yoki qushning qaysi qismiga o`xshaganligiga e`tiborni qaratish lozim. Muhimi ularni hayotda tuzilishi va stilizatsiyasini bilish va tushunish. Bu sxema bo`yicha ishlashda yordam beradi, shuningdek ularni takomillashtirib o`z modellarini yaratishga yordam beradi.

Simmetrik buklash texnikasi ustida ishlashda (oyoq, tumshuq, gul elementlarini bajarishda) buklanadigan taraflarini bir-biriga zichlamang, chunki keyingi buklashlarda ular bir-birining ustiga chiqib narsaning tashqi ko`rinishini buzishi mumkin. Ba`zida bu kabi qo`pol xatolarda narsani tayyorlash imkoni yo`q.

#### **Origami shakllarini yasash variatlari.**

Buklash texnikasini va bazaviy shakllarni o`rganib, shakllarni tayyorlashga o`tsa bo`ladi. Qiziqarli ammo murakkab shakllardan boshlab bo`lmaydi. Juda katta xohish bo`lganda xam oson va o`rtacha qiyinlikdagi narsalarni yasamay, malakaga ega bo`lmay turib murakkab narsalarga o`tib bo`lmaydi.

Boshida bazaviy shakldagi ishlarni bajarish tavsiya etiladi: to`rtburchak, uchburchak, to`g`ri to`rtburchak, keyin sodda shakldagi narsalar: ilon, koala, fil, bolish va x.k. Ushbu sodda shakl va narsalardan foydalanib matematika darsida geometrik shakllarni xususiyatlarini tushuntirish mumkin.

Bazaviy shakllar

### Oddiy bazabiy shakllar

Uchburchak




Kitob



Eshik




Varrak




### O`rta bazabiy shakllar


Quymoq




Baliq



Ikkitali Uchburchak




Ikkitalik




### Murakkab bazabiy shakllar


Uy






Qush









Katamaran



Qurbaqa







#### **4. Bolani rivojlanishida origamidani foydalanish**

Bolani rivojlanishida origami katta ahamiyatga ega: origami qo`lning mayda motorikasini rivojlantiradi; diqqat va qunt bilan ishlashni mustaxkamlaydi; origami mashg`ulotlari xavfsiz, chunki ishlash uchun qog`ozdan boshqa hech narsa talab qilinmaydi; xotira, fikrlash, makon tasavvurlarini, zehn o`tkirligini rivojlantiradi, origami bosh miyaning ikkala yarim sharlarini teng, xamoxang rivojlantiradi, barmoq xarakatlari yanada aniq bo`ladi. Chiroylik shakl bo`lishi uchun tartiblilik, diqqat, diqqatning bir joyga jamlash kerak bo`ladi (yozishni endi o`rganayotganlar uchun bu juda muhim).

#### **Origamidani zamonaviy davrda foydalanish.**

- arxitekturada;
- xoreografiya;
- artterapiyada;
- intererni bezashda;
- teatrlashtirilgan faoliyatda;
- turli o`yinlarda;
- bolalarning rivojlanishida.

#### **Origami bilan shug`ullanish bolaga nima beradi?**

- barmoqlarning mayda xarakatlarining koordinatsiyalarini mukammallashtiradi;
- chidamlilik va diqqat, sinchkovlikni o`rgatadi;

- o`z fikrini aniq ifodalash iqtidorini rivojlantiradi;
- mantiqan va abstrakt fikrlash elementlarini o`rganadi;
- uzoq o`tirish ishlay olishdik, sabr-toqatni, sinchkovlikni, xotira, makon va zamon konstruktsiyalashni rivojlantiradi.

### **Qog`ozdan buyumlar yasash:**

- bolalarni qiziqtiradi;
- bolalarni tasavvurini uyg`otadi;
- bolalarga quvonch olib keladi, negaki bolalar qo`lida qog`oz jonlanadi va xisobli daqiqalarda gullarga, xayvonlarga, qushlarga va o`zining ajobtovurligi bilan hayratlantiradigan siluetlarga aylanadi;
- kreativlikni rivojlantiradi.

### **Bolalarning badiiy – estetik rivojlanishi**

Rangli qog`ozlardan yasalgan buyumlar o`z ko`rinishi bilan yaratuvchi va tomoshabinni ko`zni quvontiradi.



### **Bolaning umuinsoniy qadriyatlarga jalb qilish**



Origami yaqin odamlariga xis-tuyg`ularini ifoda etishda, o`z qo`li bilan qilingan sovg`a sifatida, imkon beradi.



### **Bolalarning nutqini rivojlantiradi**



Origami bola nutqining rivojlanishiga yordam beradi. Buyumni yasagandan keyin u xaqda onasiga, buvisiga, otasiga, do`stiga va x.k. larga aytib berishi kerak. Tanish terminlarni ishlatgan xolda bir necha bor qanday yasaganini gapiradi.

Tanish bo`lgan asarlarni o`zlari tayyorlagan buyumlari bilan o`ynashni bolalar juda yaxshi ko`radilar. Origami–o`yinchoqlar bolalarni dialogga kirishishga undaydi, bu esa o`z o`rnida diaologik nutqiri rivojlantirishga olib keluvchi faktor bo`lib xizmat qiladi.

### **Makon va zamon tasavvurini, ko`rib chamalashni, diqqatni, xotirani rivojlanishi**

Origami mashg`ulotlarida bu avtomatik ravishda ro`y beradi. Xar bir xarakat ko`rishni talab etadi, xotirani talab qiladi (qanday bajarganimizni eslaysanmi?), diqqat talab etadi (bir xarakatni o`tkazib yuborilsa keyin nima qilishni bilmay qolasiz). Muhimi, bularning xammasi boladan yashirilgan, ular shunchaki narsa yasashadi.



## **Asosiy geometrik tushunchalar bilan tanishish**

Origami bolalarni amalda asosiy geometrik tushunchalar bilan tanishtiradi (burchak, tomon, to'rtburchak, uchburchak va x.k.), shu bilan birga lug'at boyligi yangi maxsus terminlar bilan boyiydi. Bolalar chizmalarni o'qishni o'rganadilar, maxsus belgilarni eslab qoladilar.



**Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qiladigan bo'lsak, origami quyidagi xususiyatlarga ega:**

Birinchiidan, barmoqlarning mayda xarakatlarining koordinatsiyalarini mukammallashtiradi; chidamlilik va diqqat, sinfkovlik; o'z fikrini aniq ifodalash iqtidorini rivojlantiradi; mantiqan va abstrakt fikrlash elementlarini o'rganadi; uzoq o'tirish ishlay olishdik, sabr-toqatni, sinchkovlikni, xotira, makon va zamon konstruktsiyalashni rivojlantiradi. Qog'ozdan buyumlar yasash: bolalarni qiziqtiradi; bolalarni tasavvurini uyg'otadi; bolalarga quvonch olib keladi, negaki bolalar qo'lida qog'oz jonlanadi va xisobli daqiqalarda gullarga, xayvonlarga, qushlarga va o'zining ajobtovurligi bilan hayratlantiradigan siluettlarga aylanadi; kreativlikni rivojlantiradi.

Ikkinchidan, bolalarning badiiy – estetik rivojlantiradi.

Uchinchidan, bolaning umuinsoniy qadriyatlarga jalb qiladi.

To'rtinchidan, bolalarning nutqini rivojlantiradi.

Beshinchidan, makon va zamon tasavvurini, ko'rib chamalashni, diqqatni, xotirani rivojlantiradi.

Oltinchidan, asosiy geometrik tushunchalar bilan tanishtiradi.

Yettinchidan, mustaqil ishlashga stimuly beradi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Origami qachon va qaerda paydo bo'lgan?
2. Buklashlar qaysi davrlarda va qanday bajarilgan?
3. Origaming turlarini sanab o'ting?
4. Origami tayyorlash texnikasi ?
5. Origami shakllarini yasash variatlari?
6. Bolani rivojlanishida origamidan qanday foydalanish mumkin?
7. Qog'ozdan qanday buyumlar yasaladi?
8. Origami bilan shug'ullanish bolaga nima beradi?
9. Origamida asosiy geometrik tushunchalar bilan tanishtiring?
10. Bolalarning nutqini rivojlantiradi origaming ahamiyati?

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yisha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Yusupova P. Maktabgasha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvshi. 1993.
4. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgasha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006.
5. Sodiqova Sh.A. Maktabgasha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni 2013